



Azimov Humayunxon Mo'minovich

"Qashqadaryo viloyati teleradiokanali" DM bosh muharriri

**Annotatsiya:** Adabiyot va san'atning yosh avlod ma'naviyatining shakllanishida, nutq madaniyati va so'zga munosabatining, fikrni qisqa va lo'nda, og'zaka va yozma ifoda qilishining, munosabatlarning mantiqli, tushinarli bo'lishida, e'tiqod va umuminsoniy his tuyg'ularning kamol topishidagi o'rnini benazirdir. Albatta, buning uchun she'riyat nazariyasi va texnikasi mukammal bilish bugungi zamonaviy maktab tushunchasi uchun juda mos yondoshuv hisoblanadi va u bolalarimizning ijodiy fikrlashiga, so'zning ma'no mazmunin teran anglashiga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Maktab adabiyot dasturi, lirik turlar, mif, obrazli tafakkur, diniy, mifologik, xayoliy tasavvurlar, she'rda hikoya uslubi.

**Abstract:** The role of literature and art in the formation of the spirituality of the younger generation, the culture of speech and attitude to the word, the conciseness and conciseness of thought, oral and written expression, the logicality and comprehensibility of relationships, the development of faith and universal human feelings is indisputable. Of course, for this, perfect knowledge of the theory and technique of poetry is a very suitable approach for today's modern school concept and helps our children to think creatively, to understand the meaning of the WORD in depth.

**Keywords:** School literature program, lyrical types, myth, figurative thinking, religious, mythological, imaginary images, narrative style in poetry.

**Аннотация:** Роль литературы и искусства в формировании духовности молодого поколения, культуры речи и отношения к слову, лаконичности и четкости мысли, устной и письменной речи, логичности и понятности взаимосвязей, развитию веры и универсальных человеческих чувств неоспорима. Конечно, для этого совершенное знание теории и техники поэзии является весьма подходящим подходом для современной школьной концепции и помогает нашим детям мыслить творчески, глубоко понимать смысл СЛОВА.

**Ключевые слова:** Школьная литературная программа, лирические жанры, миф, образное мышление, религиозный, мифологический, образные образы, повествовательный стиль в поэзии.

XXI asr odamining tafakkuri va dunyoqarashi globallashib borayotgan dunyo va g'arb turmush tarziga singib ketishga ulgurgan hamda axborot texnologiyalari vositasida yashin tezligida dunyoni o'z domiga tortayotgan ommaviy madaniyat xurujlari ta'siriga qarshi tura olishi uchun ta'limning ilk bosqichlaridayoq milliy va jahon adabiyoti va san'atining mumtoz durdonalaridan bahramand, estetik dunyoqarashi insoniyat tamadduni hamda madaniyati xazinasi ta'sirida shakllangan bo'lmog'i muhimdir.

Adabiyot va san'atning ma'naviyatning shakllanishida, nutq madaniyati va so'zga munosabatining, fikrni qisqa va lo'nda og'zaka va yozma ifoda qilishning,



munosabatlarning, e'tiqod va umuminsoniy his tuyg'ularning kamol topishidagi benazir o'rnini teran anglagan ajdodlarimiz qadim qadimdan bolaning savodini badiiy asarlar yordamida chiqarishga e'tibor qaratganlar va ularning o'z fikrlarini she'riy ifoda qilishiga, nutqlarini xalq og'zaki ijodi namunalari bilan bezashlariga, poetik san'atlardan foydalanishlariga yuksak baho berganlar. Shu ma'noda sharq va g'arb sivilizatsiyasida muhim o'rin tutgan davrlarning barchasida mutafakkirlar va olimlarning, davlat rahbarlari bo'lgan podshohlar hamda vazirlarning, elchilar, sarkardalarning deyarli barchasining ta'bi nazmi bo'lganligi haqida tarixiy ma'lumotlar saqlanganligi fikrimizni yaqqol dalilidir. Albatta, buning uchun she'riyat nazariyasi va texnikasi mukammal o'rgatilgan. Shu ma'noda bugungi zamonaviy maktab tushunchasi uchun ushbu yondoshuv juda muhim hisoblanadi va u bolalarimizning ijodiy fikrlashiga, SO'Zning ma'no mazmunin teran anglashiga yordam beradi. Matnni o'qish, tushinish, mazmunini gapirib berish, bayon qilish va esda saqlab qolish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu ko'nikmalar o'quvchilarning ma'lumotlarning cheksiz bo'hronida o'zi uchun muhim axborotlarni izlab topish, foydalanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab adabiyot dasturida o'rganishga tavsiya etilgan lirik asarlarni, avvalo, zamon va makon nuqtai nazaridan, ikkinchidan, she'riy tizimga mansubligi jihatidan tasniflash mumkin. Birinchi tasnifga ko'ra lirik asarlar:

1. Mumtoz adabiyot.
2. Yangi davr o'zbek adabiyoti.
3. Jahon adabiyoti namunalari tarzida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi tasnifga ko'ra:

1. Aruz she'riyati.
2. Barmoqdagi she'rlar.
3. Sarbast namunalari.

Bu tasniflar nisbiy bo'lib, ularni o'qituvchining imkoniyati va o'quvchining qiziqishi nuqtai nazaridan yanada chuqurlashtirish mumkin. Lirik turlarning his tuyg'ularni tarbiyalashi va inson ko'ngli kechinmalarini yorqin ifoda etishi asosiy unsuri bo'lsada, undagi yorqin fikr, falsafiy xulosa, donishmand nazar, intellektual salohiyat, hayotiy umumlashmalarga tayangan chuqur mulohaza albatta she'riy asar mazmuni uchun muhim omil hisoblanadi. Adabiyot muallimi o'qitishda lirik turning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olishi va ular haqida tarbiyalanuvchilarga tushuncha berishi lozim. Lirik turning quyidagi xususiyatlari talqin va tahlilda asos bo'lib xizmat qiladi:

- a) vaznga solinishi;
- b) qofiyalanishi;
- s) unda ruhiy holat va kechinmalar qalamga olinishi;
- d) doimiy ravishda inversiyaga yo'l berilishi
- ye) chuqur xayotiy mushohadalar yuritilishi va falsafiy xulosalar berilishi kabi.

Ta'kidlash joizki, maktab amaliyotida lirik asarlarni o'qitishda muallimlar tomonidan qator tipik xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Ular quyidagilar: 1) she'rlar faqat matni bilan tanishtirilib, deyarli tahlil qilinmayotganligi; 2) ayrim o'qituvchilar lirik asarlarni o'rganishda ularni yodlatish bilan kifoyalaniq qolayotganligi; 3) o'quvchilarda lirik tur janrlari to'g'risida nazariy ma'lumotlar yuzaki o'rgatilayotganligi;

4) ifodali o'qish malakasi shakllantirilmayotganligi. Aslida bu nuqsonlar adabiyot muallimining ilmiy-nazariy va metodik tayyorgarligidagi kamchiliklar bilan izohlanadi. Masalan adabiyot nazariyasidagi "meditativ lirika" tushunchasini yuqori sinf o'quvchilari bilan birga o'rganish meditativ lirikaga xos falsafiy mushohadakorlik, assotsiativ tarzda o'tmish voqeligiga qaytish, ajdodlar obrazini poetik idrok etish, geografik hududlar va o'z botini ichidagi safar ohanglari o'z-o'zidan metaforik idrok va talqinni anglashga zamin yaratadi. Chunki, metaforiklashuv asosida real voqelik, tabiat, jamiyat, shaxs tushunchalarining badiiy qamrov maydoni kengayadi. She'riy asar badiiyatning chek-chegarasiz dunyosini xuddi shu tarzda mukammal aks ettirishga erishadi.

Ernest Kassirerning yozishicha: "Tez-tez ta'kidlanadiki, aynan metafora mif va til o'rtasidagi ruhiy bog'lanishni yuzaga keltiradi. Ammo bu jarayon va bu yo'nalish o'zanini kuzatish ularning nazariy jihatdan keskin ajralishini ko'rsatadi". Mif bashariyat obrazli tafakkurining ilk ko'rinishlaridan biri bo'ladigan bo'lsa, unda voqelikni metaforiklashtirish tamoyili yetakchilik qilsa, mifga xos badiiyat, falsafiy mushohada, voqelik bilan metaforik munosabatga kirishuvi nuqtai nazaridan meditativlik xossasini ham namoyon etishiga shubha yo'q. Olimning ta'kidlashiga ko'ra, ko'proq lirika so'z magiyasi va mifga bog'langanligi jihatidan yetakchi mavqeni egallaydi: "Boshqa xillar ichida aynan lirika hammasidan aniqroq tarzda ushbu ideal taraqqiyotni aks ettiradi. Axir muayyan magik-diniy motivlarga ildizlari bilan bog'lanadigina emas, balki lirikaning o'zi ulug'vor va pokiza yaratilishiga ko'ra mif bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqadorlik kasb etadi".

E.Kassirerning fikrlari tushunarli va muayyan asosga ega. Shunga qaramasdan, bizning fikrimizcha, metaforaning bir ildizi din va mifdan suv ichsa, yana bir ildizi reallik, real hayot voqeligi, real tarixiy o'tmiz va tarixiy shaxslardan ham suv ichadi. Shu xususiyati bilan o'zining meditatativ tabiatini namoyon etish bilan birga, shoirning konkret voqelik bilan doimiy munosabatini ta'minlab turadi. Aslida ikki narsa yoki voqea-hodisaning solishtirilishi, sintezlashtirilishi natijasida paydo bo'ladigan yangi ma'no metaforaning mohiyatini tashkil etadi. "Metafora ruhiy teranlik ichida tashqi dunyo obyektlarining sovuq tasavvur tafti vositasida qorishib ketishidir".

Demak, metafora maydonga kelishi uchun uch narsa zarur bo'ladi: birinchisi, real voqelik; ikkinchisi, diniy, mifologik, xayoliy tasavvurlar tizimi; uchinchisi, shoir, muallif subyekti. Bunga qo'shimcha ravishda yana bir narsani ham qayd etishni xohlardik. XX asr o'zbek she'riyatining tadrijiy taraqqiyot jarayonida kuzatishimiz shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy muhit erksizligi, siyosiy tuzum tazyiqlari kuchaygan davrlarda ham metaforiklashuv jarayoni tezlashgan. Bu jarayonda jahon she'riyatidan ta'sirlanish, adabiy ta'sir masalasini ham istisno etib bo'lmaydi.

Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Matnazar Abdulhakim, Usmon Azim, Yo'ldosh Eshbek, Halima Ahmedova kabi shoirlarimiz ijodini yonma-yon qo'yib o'rganish bizni shunday xulosaga olib keladiki, mana shu tipdagi shoirlar ijodida meditativlikning metaforiklashgan shakli yetakchilik qilgan. Xuddi shu tomonlama kelib chiqib, mazkur shoirlar lirikasini metaforiklashuv muammosi yuzasidan o'rganish zarurati o'zini oqlaydi. Masalan Sh.Rahmoning bir she'rida o'zbek mifologiyasida mavjud bir mantiqiy ziddlik ijtimoiy planga olib chiqiladi. Erk va mustaqillik orzusi, istiqlol lahzalari kelishiga ishonch mifologik kod metaforasi bilan beraladi:



Ishonaman  
bir kun dev o'lar,  
jarga qular so'qir holida,  
ot xashagi oxurda bo'lar,  
so'ngak bo'lar itning oldida.

Mifologik hikoyaga ko'ra odamlar saltanatini dev va yalmong'iz kampir egallab olgandan keyin xalqqa hamma narsani teskari bajarishga buyruq beradi. Oqibat yaxshi yomon bo'ladi, rost yolg'onga aylanadi, odil zolimga, to'g'ri poraxo'rga do'nadi. Kenja botir kelib devni yenggach, hammasi joyiga tushadi. Sh.Rahmon bu bilan bir kun kelib sovetlar hukumati qulaydi, haqiqat qaror topadi degan fikrni mana shu mifga assotsiatsiya tarzida ifodalaydi. Oldiga xashak tashlangan it, oxuriga suyak solingan ot metaforasi orqali yovuzlikning katta nizomlarga, ilohiy haqiqatga zid ekanini aytish uchun badiiy vosita sifatida foydalanadi. Bu she'rida ham shonli o'tmish – Kenja botir, buzilgan o'lka – ot va it, muzaffar kelajak haqidagi orzu – ko'r qilinib, jarga uloqtirilgan dev timsolimda yaxlit metaforaga aylantiradi.

M.Abdulhakimning "Do'stlarga salom ayt..." deb boshlanuvchi she'rida ijtimoiy voqelikni metaforiklashtirishning o'ta nozik namunasiga duch kelamiz:

"Do'stlarga salom ayt mendan", deding sen,  
So'ngra qo'shib qo'yding: - "Dushmanlarga ham..."  
Bilmadim, qanday bir odam eding sen,  
Omonating berdi oromga barham.  
Saloming aytay deb izlab tolmadim,  
Haq bartaraf qilsin kamu ko'stingni.  
Saloming qaytib ol... uchratolmadim  
Na bir dushmaningni, na bir do'stingni...

She'rdagi hikoya uslubi ustuvor. Bir qaraganda shoir bo'lgan bir voqeani so'zlab berayotganga o'xshaydi. Hamma narsa ochiq-oydin. Bu yerda bironta sir, tagqatlamdagi ma'no yo'qdek ko'rinadi. Ammo oxirgi ikki misra oldingi hikoya qiluvchi misralar bilan reaksiyaga kirishgandan keyin she'r mazmunidagi ochiqlik yo'qoladi. Shu nuqtada sir paydo bo'ladi. Kimdir safarga o'tlanayotgan lirik qahramonga salomini yetkazib qo'yishni omonat qiladi. Lirik qahramon esa o'z yo'lida salom aytilgan kishilarni izlaydi. Bular mavhum adresatlar edi: "do'stlar" va "dushmanlar". Safar so'nggida salom aytuvchining do'sti ham dushmani ham yo'qligi ma'lum bo'ladi. Lirik qahramon undan "salomini qaytib olishini" so'raydi. Dunyoda na do'sti, na dushmani bo'lmagan odam topiladimi? Bu qanday odam? Mana shu savollar atrofida izlangan o'quvchi she'rdagi nozik metaforani anglashi mumkin. Ijtimoiy hayotda yashab turib, do'stu dushman orttira olmagan odam bu – loqayd odam. M.Abdulhakimning "salom ayt" degan qahramoni esa loqaydlikning ayni o'zidir. Shoir bu bilan loqaydlik illati haqida meditatativ mushohada yuritadi. Shaxsning, jamiyat va millatning zavoli sifatida loqaydlikni ko'rsatadi. Chunki loqaydlik odamga xos bo'lgan barcha illatlardan xavfliroqdirki, xalqimiz boshiga tushgan o'nlab kulfatlar shularning kasriga bo'lgan desak xato bo'lmaydi. Bu falsafa olamon psixologiyasiga xos bo'lib A.Oripov buni "Olamonga" she'rida ochiq-oydin aks ettirgan edi.

Albatta yuqoridagi she'rlarni ham nazariy, ham badiiy jihatdan o'rganish, tahlil etish va talqin qilish o'quvchilarning badiiyatni his qilishlariga va asl she'rdan lazzat olishlariga, millat, ona Vatan, Ozodlikni anglashlariga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR:

1. E.Kassirer. Sila metafori /Teoriya metafori. – M.: Progress, 1990 g.
2. Filipp Uilrayt. Metafora i realnost /Teoriya metafori. – M.: Progress, 1994g.
3. Rahmon Sh. Saylanma. – Toshkent: Sharq nashriyot matbaa konserni, 1997 y.
4. Abdulhakim M. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2017y .
5. Rahimjonov N. Badiiy kashfiyotlar tongi / Ahmedova H. Yashil. – Toshkent: O'zbekiston, 2016 y.
6. Jo'raqulov U. Asl o'zanlar sari //Mo'minova G. Kometa. SHE'rlar – Toshkent: G'.G'ulom, 2019 y.
7. Quronov D. Nazariy qaydlar. – Toshkent: Akademnashr, 2018 y.